



## Alisher Navoiy asarlarida o'xshatish va metaforalarning go'zallikda aks etishi

Saidrasulova Charos To'lqin qizi  
 Mirzo Ulug'bek nomidagi  
 O'zbekiston Milliy Universiteti  
 Filologiya fakulteti magistranti  
[Saidrasulovacharos@gmail.com](mailto:Saidrasulovacharos@gmail.com)  
 +998970056667

**Annotatsiya:** Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan o'xshatish va metaforalarning "go'zallik" konseptiga aloqadorligini aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** "Go'zallik" konsepti, metaforalar, oddiy metafora, personifikatsiya, sintezya, omonimlik.

**Abstract:** It is to determine and analyze the relevance of similes and metaphors used in the works of Alisher Navoi to the concept of "beauty".

**Key words:** "Beauty" concept, metaphors, simple metaphor, personification, synthesis, homonymy.

**Kirish:** Konsept ko'p qirrali hodisa bo'lib, uning atrofida ko'plab lisoniy vositalarning rolini ko'rish mumkin. Jumladan, metaforalar yordamida ifodalanuvchi go'zallik konsepti birliklari ham ana shunday vositalardan sanaladi.

O'zbek tilidagi lingvistik metaforalar ma'no ifoda etgan obyektlarning o'xshatilish holatiga ko'ra, uch turga: oddiy metafora, personifikatsiya va sinteziyaga bo'linadi.

**1. Oddiy metafora** ma'lum so'zning leksik ma'nosi ifoda etgan obyekt o'ziga tog'ridan-to'g'ri o'xshash bo'lgan ikkinchi bir obyektning nomdosh qilib olishi bo'ladi. Shuning orqasida mazkur so'z ikkinchi obyektning ham ifoda etuvchi ko'chma ma'no orttiradi. Bu obyektlar o'rtasidagi o'xshashlik ularning sirtqi belgisi, harakat va holat xususiyati, vazifasi kabilarga asoslanadi. Sportga oid, to'p va shayba kiritish uchun mo'ljallangan qurilma ham mazkur tushunchaga sirtqi belisi va vazifasiga ko'ra o'xshash bo'lganligi uchun, uni darvoza so'zi bilan atab yuborilgan. Natijada darvoza so'zi mana shu atash hisobiga ko'chma ma'no hosil qilgan. Oddiy metafora, ot turkumidan tashqari, fe'l va sifat turkumiga oid so'zlarda ham uchraydi. Masalan, Qizim, dadang, enang, hasratingda kuyib bitdi (Oybek)

**2) Personifikatsiya** (jonli ob'ekt jonsiz ob'ektning o'ziga nomdosh qilib olishi); Mazkur jonli va jonsiz obyektlar o'rtasidagi o'xshashlik ham sirtqi belgi, harakat va holat xususiyati, vazifasi kabilarga asoslanadi. Ammo bu o'xshashlik nomdosh bo'lib olgan obyektga jonli holat baxsh etish orqali yuzaga chiqadi. Masalan, dam so'zining leksik ma'nolaridan biri nafasni ifoda etgan. Bu so'z nafasga sirtqi belgisi o'xshash bo'lganligi uchun quyosh tafti, haroratini ham ifoda etadigan bo'ldi. Natijada dam so'zi ko'chma ma'no hosil qildi.

Masalan, Quyosh damini g'ir-g'ir esgan shamol kesar edi (Oybek).



Personifikatsiya, ot turkumidan tashqari, fe'l va sifat turkumiga oid so'zlarda ham uchraydi. Masalan, Qiz sho'rlikni dard yedi, dardga qo'yan kim edi (qo'shiq). gaplaridagi yemoq fe'li personifikatsiya natijasida hosil bo'lgan.

**3) Sinesteziya** (sezgi orqali his etiladigan ikkinchi ob'ektni nomdosh qilib olishi). Bunda oddiy metafora belgilarga qarab oddiy qiyoslash, personifikatsiya jonlantirish orqali qiyoslash, sinesteziyada esa sub'ektiv holatda qiyoslash o'xshatish uchun asos bo'ladi. Masalan, mayin so'zining leksik ma'nolaridan biri paypaslab, ushlab ko'rish orqali his etiladigan belgini ifoda etadi. Tovushning ohista va yoqimlilik belgisini ifoda etuvchi ko'chma ma'no esa mazkur ma'nodan hosil bo'lgan. Bu belgilar subyektiv o'lchov, sezgiga ta'sir etishi nuqtayi nazaridan umumlashtirilgan va o'zaro o'xshatilgan. Masalan, Faqat suvning mayin jildirashi eshitiladi (S. Zunnunova).

Sinesteziya sifat, ot, fe'l va ravish turkumiga oid so'zlarda uchraydi. Demak, oddiy metaforada belgilariga qarab oddiy qiyoslash, personifikatsiyada jonlantirish natijasida qiyoslash, sinestaziya esa subyektiv holatda qiyoslash o'xshatish uchun asos bo'ladi.

Til tashqi olamga ma'no orqali bog'lanadi. Til belgilari ortidaturuvchi hodisalarni o'rganish inson kognitiv faoliyati va nutqiy faoliyat aloqasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'xshatish va qiyos, ko'plab tadqiqotchilar e'tirof etganidek, inson tafakkurida eng ko'p qo'llanuvchi usullardan bo'lib, uning verbal ifodasi til nominatsiyasining serqirra hodisa ekanligini ko'rsatadi. Xususan, konseptual metaforaning verbal bosqichga o'tishi o'zida murakkab kognitiv-semantik jarayonni namoyon etadi.

**Asosiy qism:** O'zbek mumtoz adabiyotida ko'chma ma'no hosil qiluvchi vositalardan fodalanib she'r bitmagan, g'azallarda metaforalarni o'xshatishning qisqargan shakli, yoki murojaat shaklidan

foydalanmagan ijodkorni uchratish qiyin. Adabiyotlarning ko'pchiligida nom ko'chishining turli shakllarini ko'rishimiz mumkin. Ijodkorlarning deyarli har bir asarlarida metaforalarning boshqa ko'chim turlariga nisbatan salmog'i ortiqroq.

Alisher Navoiyning asarlarida mavjud metaforalar matnning badiiy xususiyatlarini ta'minlashda, ifodada nutqiy ta'sirchanlikka erishishda alohida ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy g'azallarida metaforalar asosan so'z va birikma shaklida qo'llanishi bilan xarakterlanadi. Alisher Navoiyning 1988- yilda nashr etilgan "G'aroyibus-sig'ar" Devonidagi g'azallarda qo'llangan metaforalarning so'z shakliga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

*Tish qadabmen la'linga uzmasmen andin bu tama'..*

(G'S:№ 417,330-b.);

So'z birikmasi holida ifodalangan metaforalar mumtoz adabiyotimizda sermahsul hisoblanib, Alisher Navoiy asarlarida so'z birikmasi shaklidagi metaforalar g'azallarda so'zlarning bir necha nozik ma'no qirralarini ochishga xizmat qilgan.

Tiyra kulbam ichra o't soldi firoqing, voykim,  
Yorudi *kuymak o'ti* birla qorong'u maskanim



Ey malohat sham'i har soat meni *kuydurmakim...*

(G'S: № 404,321-b.)

Quyidagi baytda o't soldi so'zi ot+fe'l shaklida bo'lib, ma'no ko'chishining sinteziya ya'ni sezgi orqali his etiladigan ikkinchi ob'ektni nomdosh qilib olishi ko'rinishida ma'no ko'chishi yuz bergan. O't morfemasi to'rt o'rinda omonimlik xususiyatini bildirib kelgan:

1. O't- inson a'zosi
2. O't- falokat bo'lib yonish
3. O't- maysazor
4. O't- yurakdagi o't ma'nosida.

Ko'chimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, ya'ni ikki narsa yoki tushuncha o'rtasidagi muayyan munosabat (o'xshashlik, umumiylik, aloqadorlik kabi) asosida tasviriylik, ifodalilik, aniqlikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi [19].

Ko'chma ma'noli so'zlar qanday ma'no asosida ko'chayotganligiga qarab

- Metafora;
- Metonomiya;
- Sinekdoxa
- Vazifadoshlik;
- Kinoya (tag ma'no). kabi turlarga bo'linadi:

Nutqimizda eng keng tarqalgan va ko'p qo'llaniladigan ma'no ko'chish usuli metaforadir. Metafora narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi o'xshashlik asosida nom (so'z)ning ko'chishidir. Metafora (yunoncha metaphora- ko'chirish) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o'rtasidagi ma'lum o'xshashlik asosida ko'chishidir.

Ba'zi bir mifologik obrazlar ongimizda ayol yoki erkak qiyofasida gavdalangani bois ular jins tushunchasini ifodalaydi. Masalan, pari, hur, malak kabi birliklar tasavvurimizda ayol qiyofasini gavdalantiradi. Navoiy gazallarida afsonaviy shaxs nomlari ichida pari leksemasining qo'llanish chastotasi ancha yuqori. Pari so'zi qo'llangan baytlarda devona va telba singari shaxsning ruhiy holati bilan bogliq belgining substantlashishi hisobiga ifoda topgan, shuningdek, tahlil etilayotgan leksema bilan jinsiy oppozitsiyadagi shaxs otlari ham ifoda etiladi. Uchinchi baytda qo'llangan telbalik oti holatni nomlasa-da, aksariyat bu so'z g'azallarda shaxs semasini namoyon etadi.

O'zbek tilida izohlanishicha, pari – sharq xalqlari folklorida keng tarqalgan, juda go'zal qiz qiyofasidagi, nurdan yaratilgan, kishilarni ins-jinslardan saqlaydigan afsonaviy obraz; go'zallik ramzi<sup>7</sup>. Izohdan ko'rinib turibdiki, bu so'z ma'nosiga ko'ra ajina, alvasti so'zlaridan farqli ravishda go'zal, yaxshiliklarga yetaklovchi, yomonliklardan saqlovchi xususiyatlarga ega. Shunday bo'lsa-da, Navoiy g'azallaridagi baytlar tahlilidan ko'rinadiki, pari ins-jinsdan saqlovchi emas, balki aql-hushni oladigan, sehr-u joduga ega mifologik timsol sifatida namoyon bo'ladi. Bunga baytdagi telba va devona so'zlari ham



ishora qilib turibdi. Lugʻatda berilganidek, pariga emas, balki farishtaga yuqoridagi izoh birmuncha mos keladi.

Quyidagi misolda esa pari soʻzi malaksiymo epiteti bilan qoʻllangan. Bu oʻrinda uning taʼsiri doirasidagi subyekt son jihatdan koʻpayadi. Natijada parining oshiqlar ruhiyatiga taʼsiri ham ancha kuchsizlanadi. Har galgidek matnda devona va telba soʻzlari emas, ulardan belgi jihatdan quyiroq pogʻonada turuvchi hayronidur leksemasi qoʻllanadi.

Jumladan:

Ul malaksiymo pariykim, xalq aning hayronidur,

Jonlar oshubi vale oshufta jonim jonidur(GʻS, № 188).

Pari forscha soʻz boʻlib, mifologiyada juda goʻzal qiz qiyofasidagi, nurdan yaratilgan, kishilarni ins-jinslardan saqlaydigan afsonaviy obraz, goʻzallik ramzi. Quyidagi misolda esa pari leksemasi xuddi gʻarb mifologiyasidagi singari `qanot` semasini namoyon qiladi.

**Xulosa:** Metaforalar inson hayoti davomida eng koʻp foydalaniladigan birliklardan biri hisoblanadi. Bu birlikdan deyarli hayotimiz davomida har kuni foydalanamiz. Alisher Navoiy asarlarida ham metaforaning bir koʻrinishini quyidagi bayt orqali koʻrishimiz mumkin:

Qay pari-paykarga dersen, telba boʻlding bu sifat?

Yey pari paykar, ne qilsang qil manga, boʻldum sanga! (Navoiy. Gʻazallar, 23 b.)

Hur-u gʻilmon, pari-paykar obrazlari, ayniqsa, mumtoz adabiyotimiz durdonalarida, shuningdek, oʻzbek xalq ertaklari tarkibida ham koʻp uchraydi. Bu soʻzlarning hammasi qiyosan bir xil “farishta, malak” maʼnosida qoʻllaniladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mahmudov N. Xudoyberganova D. Oʻzbek tili oʻxshatishlarining izohli lugʻati. –Toshkent: Maʼnaviyat, 2013. – 318 b.

2. Dorofeeva A.A. Metafora sirida nima yashiringan? (XX asrda G'arb olimlari tomonidan metaforani o'rganishga yondashuvlar to'g'risida) / Vestn. Moskva universitet Ser.

3. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 1-2 жилдлар. Фан, -Т., 1987-1988. -Б.144